

TOLERANTLIK DUNYOQARASHINI SHAXS HAYOTIDAGI O'RNI

Tulyayev Avaz

*Milliy universiteti,**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotatsiya: *Maqolada jamiyat taraqqiyoti yo'lida tolerantlikka bo'lgan ehtiyoj haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari UNESCO "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilgan va bu masalada qanday amaliy ishlar qilinganligi haqida ham maqolada ma'lumot berilgan.*

Kalit so'z: *Tolerantlik, mafkura, jamiyat, shaxs, qadriyat, psixologiya, muhit, ong.*

Tolerantlik xilma-xil qarash, intilish, yondashuvga ega bo'lgan va turli mafkuraviy pozitsiyada turuvchi kuchlarning jamiyat va millat manfaatlari yo'lida hamkorlik qilishini, ezgu maqsadlarni ko'zlab, hamjihat faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha. 1995 yil 16 noyabrda Parijda UNESCOning yigirma sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" Yer yuzidagi barcha mamlakatlarda mafkuraviy bag'rikenglikni shakllantirishning umumnazariy asosidir. Mafkuraviy tolerantlik g'oyasi jamiyatda asrlar davomida shakllanib kelgan bunyodkor g'oyalar, ezgu niyatlar va maqsadlarning ro'yobga chiqishi uchun zamin tayyorlab beradi. Hozirgi davrda mafkuraviy tolerantlik g'oyasi jamiyatdagi barcha qatlam, ijtimoiy guruh va millatlarning ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi va mamlakatda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston xalqi dunyoviy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurmoqda. Barpo etilayotgan jamiyatimizning siyosiy-huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan bugungi kunda, ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan mafkura faoliyati uchun bir xil sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Tolerantlikning ijtimoiy hayot turli jabxalarida namoyon bo'lishi jamiyat mavjudligi va rivojlanishining muhim shartlaridan biri ekanligi uni ijtimoiy qadriyat sifatida qarashni taqazo etadi. Yana muhim bir jixatini ta'kidlash lozim, ya'ni tolerantlik dunyoqarashi shaxs ma'aviyatining tarkibiy qismidir. Ijtimoiy ongning atributiv belgisi sifatida esa jamiyat ma'naviyatining yuksak qadriyatlaridan biridir. Shuning uchun ma'naviy tiklanish va yuksalishning muhim shartlaridan biri tolerantlik dunyoqarashini shakllantirish dolzarb vazifalaridan biridir. Tolerantlik jamiyat hayotining turli sohalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Jamiyat sotsial (ijtimoiy) strukturasi unsurlari (sinflar, qatlamlar, turli ijtimoiy guruhlar va boshqalar) o'rtasidagi munosabatlarda tolerantlik, siyosiy hodisa va jarayonlarning kechishi va rivojlanishida siyosiy plyuralizm bilan bog'liq munosabatlarda tolerantlik, mamlakatlarning ko'p millatligi asosida yuzaga keluvchi etnik (millatlar va elatlararo) tolerantlik, insonlar diniy e'tiqodining xilma-xilligi asosida namoyon bo'luvchi dinlararo (konfessiyalararo) tolerantlik.

Tolerantlik tafakkuri insonlarning o'ziga xosligi, turfa xilligi, individualligini inkor etmaydi, ularning fikrlari, dunyoqarashlari, hayotni tushunish va bilimlari o'rtasida tafovutlar, xatto qarama-qarshiliklar bo'lishini tan oladi. Tolerantlik tafakkurining maqsad va vazifasi shundan iboratki, bu tafovut va qarama-qarshiliklar baxs-tortishuvlarga, keskin ziddiyatlarga, o'zaro konfliktlarga, nizo va to'qnashuvlarga aylanib ketmasligining oldini olishdir. Bunday xollarda, tolerantlik tafakkuriga ega shaxslar har doim bu masalalarning har ikkala tomonga ma'qul va manzur yechimini topishga, o'zaro kelishishga, murosaga kelishga harakat qiladilar va maqsadga erishadilar. Shunday qilib tolerantlik tafakkuri insonlararo munosabatlarda bir-birini tan olish, hurmat qilish va xamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Ma'lumki insonlar muayyan bir millat, elat, davlat, sinf, ijtimoiy guruh vakili, muayyan diniy, siyosiy, xuquqiy va boshqa qarashlar subyekti, madaniyat, mafkura tarafdori sifatida muayyan jamiyat a'zolaridir. Ularning ijtimoiy holatlariga qarab, tolerantlik konkret ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO xalqaro meyoriy hujjatlari. –T.: Adolat. 2004. 92-6.
2. Абидова З.А. Понятийные аспекты феномена «толерантность». //Научный Вестник Самаркандского государственного университета. – Самарканд, 2017. – № 4 (104). – С. 165-168.
3. Лебедева Н.М., Малхозова Ф.М. Социально–психологическое исследование этнической толерантности в Карачаево–Черкесии // Идентичность и толерантность. – М.: ИЭА РАН, 2002. С. 152–168.
4. Личность в парадигмах и метафорах: ментальность, коммуникация, толерантность. – Томск, 2002.